

## QURILISH KORXONALARIDA DAROMADLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

**Nasriddinov Bahodir Komiljon o'g'li**

*Samarqand-2024*

*Qurilish korxonalarida daromadlar  
auditini takomillashtirish*

**B.Nasriddinov**

*Student (Sam ISI) Magistrant*

**Annotasiya:** *Maqolada qurilish tashkilotlarida asosiy faoliyatidan olinadigan daromadlar audit maqsadi, axborot ta'minoti, audit o'tkazish ketma ketligi, audit rejasi va dasturini ishlab chiqish tartiblari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qurilish korxonalar faoliyati, Qurilish korxonalar audit, audit rejasi, audit dasturi, audit ketma ketlifi, Qurilish korxonalar daromadi*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье раскрыты цель проверки доходов от основной деятельности в строительных организациях, информационное обеспечение, последовательность проведения проверки, порядок разработки плана и программы проверки.*

**Ключевые слова:** *Деятельность строительных предприятий, Аудит строительных предприятий, план проверок, программа проверок, последовательность проверок, Доходы строительных предприятий*

**Abstract:** *The article reveals the purpose of verifying income from core activities in construction organizations, information support, the sequence of verification, the procedure for developing a plan and verification program.*

**Keywords:** *Activities of construction enterprises, Audit of construction enterprises, inspection plan, inspection program, sequence of inspections, Income of construction enterprises*

### KIRISH

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ko'plab ma'ruzalarida korxonalar asosiy fondlarini kengaytirish, yangilash va kam eneryiga istemol qiladigan uskunalar bilan ta'minlash masalalari haqida takidlab o'tganlar. Jumladan, 27aprel kuni ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida quyidagini ta'kidlaganlar: "To'rtinchi yo'nalish, industrial rivojlanish. Bugungi kunda O'zbekiston to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektr texnikasi, mashinasozlik tarmoqlarida yetarli xomashyo va malakali kadrlarga ega. Bu sohalarda ishlab chiqarish va eksportni 2 barobar oshirish uchun yetarli imkoniyatlar bor. Buning uchun yirik brendlar bilan hamkorlik, tashqi bozorlarga chiqish, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar kerak." Mazkur Milliy standartning maqsadi bo'lib:

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifatini va uning natijalari ishonchligini kafolatlaydi.

Auditorlik standartlarining ahamiyati quyidagilardan iborat:

- ularga rioya qilinganda auditorlik tekshiruvlarining yuqori sifatli bo'lishi ta'minlanadi;
- auditorlik amaliyotiga yangi ilmiy yutuqlarni joriy qilishga yordam beradi;
- muayyan vaziyatlarda auditorlar qanday ish tutishlarini belgilab beradi..

Ichki audit milliy standartlari tasdiqlanishi natijasida vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlarining faoliyatini amalga oshirish va ichki audit tadbirlarini o'tkazishning umumiy tartiblari belgilandi.

Shu jumladan, Ichki audit milliy standartlari bilan quyidagilar tasdiqlandi: ichki audit xizmati faoliyatining tamoyillari;

ichki audit xizmatining mustaqilligi va ichki audit xizmati xodimlarining malakasiga qo'yiladigan talablar; ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash;

ichki audit tadbirlarini o'tkazish tartib-taomillari (ichki audit yillik rejasini tuzish, ichki audit tadbirini tashkil etish va o'tkazish, uning natijalarini rasmiylashtirish, aniqlangan xavflarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda uning bajarilishini monitoring qilish, vakolat doirasidan tashqaridagi xavflar haqida xabar berish, ichki audit xizmati faoliyati to'g'risida hisobot).

Ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan Ichki audit milliy standartlari orqali vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlarining faoliyatini amalga oshirish va ichki audit tadbirlarini o'tkazishning umumiy tartiblarini belgilab berish to'g'risidagi normalar amaliyotga joriy etiladi.

### DAROMADLAR AUDITINING REJASI

Tekshirilayotgan tashkilot:

Audit davri

Kishi-soatlar soni:

Auditorlik guruhi rahbari:

Auditorlik guruhi tarkibi:

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi

N	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izoxlar
1	Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi registrlar ko'rsatkichlari bir biriga muvofiqligini tekshirish	02.03 05.03 2021	Soliyev K.	
2	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot to'g'ri tuzilganligini tekshirish	06.03 10.03 2021	Soliyev K.	
3	Korxonada daromadlari tarkibini urganish	07.03 08.03 2021	Soliyev K.	
4	Boshqa shakldagi hisobotlar to'g'ri tuzilganligini tekshirish	09.03 16.03 2021	Soliyev K.	

Auditor auditning umumiy rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan, rejalashtirilgan auditorlik muolajalarining tavsifi, muddati va hajmini belgilovchi audit dasturini ishlab chiqishi va hujjatli rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturi auditda ishtirok etayotgan auditor yordamchilari uchun yo'riqnomalar to'plami hamda ishni tegishli ravishda

bajarilishi va aks ettirilishi yuzasidan nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, audit dasturi auditning har bir bo‘limi bo‘yicha belgilangan vazifalar va auditning turli jabhalari yoki muolajalariga ajratilgan soatlar miqdori ko‘rsatilgan vaqt byudjetidan iborat bo‘lishi mumkin. Auditorlik tashkiloti bajarayotgan rusum-qoidalarning natijalarini umumiy reja va dasturni tayyorlash paytida batafsil hujjatlashtirish kerak, chunki mazkur natijalar auditni rejalashtirish uchun asos hisoblanadi va butun audit jarayoni davomida ishlatilishi mumkin.

### **TADVIQOT METODOLOGIYASI**

Audit standartlari - o‘zining professional faoliyati davomida hamma auditorlar rioya qilishi lozim bo‘lgan yagona asos tamoyillardir. Auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifati darajasini va audit natijalarining ishonchligini ta‘minlaydi. Auditorlik standartlari sudda auditorlarning haqqoniy ishlaganligining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Agar auditor standartdan chekinish qilgan bo‘lsa, buning sababini ko‘rsatishi lozim. Butunjahon mamlakatlari o‘rtasida bo‘ladigan savdo-iqtisodiy va boshqa ko‘rinishdagi aloqalar ular o‘rtasida bo‘ladigan hisob-kitoblarni unifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Buning uchun, milliy hisob va audit tizimlarini yaxlit shaklga keltirish talab qilinadi. Jahon mamlakatlari o‘rtasida milliy hisob va audit tizimlarini yaxlit holga keltirish uchun yagona qoidalarni ishlab chiqish lozim edi. Bu qoidalar auditorlik amaliyotida auditning xalqaro standartlari maqomini oldi. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari bevosita ular tomonidan bajariladigan qurilish, qurilishmontaj, jihozlarni o‘rnatish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, kapital va joriy ta‘mirlash ishlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq olib borilganligi va bunda belgilangan me‘yor va tartiblarga amal qilingan-ligini nazorat qilish, qurilish ishlariga ketgan sarf-xarajatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatlashtirish, ular asosida qurilish jarayonlari sintetik va analitik hisobini yuritish, tugallanmagan qurilish ishlari qiymatini to‘g‘ri aniqlash, tugallangan ishlar qiymatini aniq baholash va kalkulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o‘zaro hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishini ta‘minlash buxgalteriya hisobi oldida turgan eng muhim vazifalardir.

Qurilish ishlarining xususiyatlari qurilish tashkilotlarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo‘yadi. Chunonchi, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turadigan maxsus texnika turli mexanik va elektr jihozlar, yuk tashish mashinalari, maxsus bino va inshootlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarni berishi lozim.

Qurilish ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli qurilish materiallarining qurilish maydonchalariga o‘z vaqtida kelib tushishiga, ular bo‘yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to‘g‘ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi qurilish ishlarining tannarxiga, ularni bajarishdan olinadigan daromad va to‘lanadigan soliqlarga, qurilish tashkilotining sof foydasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to‘g‘ri

baholash, materiallar holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish, kirim va chiqimiga doir hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo'yadi.

#### Tahlil va natijalar

Yuqoridan ko'rinib turibdiki qurilish tashkilotlarining audit siyoasti dolzarb masalalardan ichki va tashqi foydalanuvchilarga ular faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tegishli shakl va mazmunda yig'ish, qayd etish, guruhlash va jamlash hamda ularni o'z vaqtida yetkazib berish talablariga javob berishi kerak.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi respublikamizning "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni (7-modda)da ko'rsatilgan to'rtta shakllardan birida tashkil etilishi mumkin.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda bu tashkilotlarning katta-kichikligi, ularning maqomi muhim rol o'ynaydi. Yirik qurilish tashkilotlarida bajariladigan hisob-kitob ishlari hajmi katta bo'lganligi uchun buxgalteriya tarkibi alohida bo'limlardan, masalan, moddiy boyliklar hisobi bo'limi, mehnat va unga haq to'lash hisob-kitobi bo'limi, qurilish ishlari hisobi bo'limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo'limi va boshqalardan tashkil topadi. Buxgalteriya bo'limlari ish faoliyatiga bosh buxgalter rahbarlik qiladi.

Qurilish tashkilotlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning tanlab olingan shakli, shuningdek ushbu shaklda hisob ishlarining bajarilishini tartibga solib turuvchi ichki me'yoriy hujjatlar tizimi belgilanadi. Ichki me'yoriy hujjatlar odatda, buxgalteriya to'g'risida Nizom, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, buxgalterlar o'rtasida funksional majburiyatlarning taqsimoti, mehnat shartnomalari, ixtisoslashgan buxgalterlik firmalari yoki auditorlik tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar hisoblanadi. Ushbu ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi jurnal-order, memorial-order, bosh-jurnal va ixchamlashtirilgan shakllardan birida qo'lda yoki zamonaviy kompyuterli texnologiyalarga asoslanilgan holda yuritilishi mumkin. Hozirgi paytda aksariyat qurilish tashkilotlarida qo'llanilayotgan hisob shakli bo'lib jurnalorder shakli hisoblanadi.

#### Xulosa va takliflar

Auditor ushbu asosiy masalalarni o'rganib, ularga auditorlik hisobotining tahliliy qismida baxo berishi va yo'l qo'yilgan xatolar hamda hisobning belgilangan qoidalaridan chetga chiqish xollarini bartaraf qilish bo'yicha takliflar berishi lozim. Asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish maqsadi buxgalteriya hisoboti asosiy vositalar bo'limining ishonchliligi to'g'risida fikr shakllantirish va qurilish korxonasini asosiy vositalar bilan bog'lik muomalalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish uslubiyotini tashkil etishning O'zbekiston

Respublikasida  
xujjatlarga  
amal qilayotgan me'yoriy  
hamda moliyaviy hisobotning xalqaro  
standartlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.!

## REFERENCES:

1. Аудит. Ўқув қўлланма /Тўлахўджаева М.М., Жўраев Т.И, Гулямова Ф.Г.ларнинг умумий таҳрири остида. – Т.: БАМА нашр. Маркази. 1 том
2. Дустмуродов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.: Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003;
3. Мусаев Х.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: Молия, 2003 "Экономика и социум" №6(109)-2 2023 www.iupr.ru 503
4. International Accounting Standard 16 Property, Plant and Equipment. EC staff consolidated version as of 16 September 2009.
5. Akhmedjanov, K. (2020). KB Akhmedjanov The quality control system audit in Uzbekistan. Архив научных исследований, 1(4).
6. Urazov, K. B. Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent–2004.
7. Jaloliddin o‘g‘li, A. S. (2022, October). CHANGES IN ACCOUNTING WITH THE DEVELOPMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES. In Archive of Conferences (pp. 299-309).
8. Хатамов, К. (2022). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobini halqaro va milliy standartlarda aks ettirish masalalari. Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности, 1(5), 70-74.
9. Luptullaevich, X. T. (2023). Iqtisodiy o‘shish sharoitida paxta va to‘qimachilik mahsulotlarini rivojlantirishning istiqbolli strategiyalari. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, 2(6), 41-44.
10. Luptullaevich, X. T. (2023). Paxta-to‘qimachilik sanoatining eksportga yo‘naltirilgan korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, 2(6), 37-40.